

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Past fon nurlanishli gamma kalibrlash qurilmasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Respublikada past fonli gamma-nurlanishni o‘lchash va kalibrlashga mo‘ljallangan zamonaviy gamma-kalibrlash qurilmasi yaratiladi hamda amaliyotga joriy etiladi. Yaratiladigan kalibrlash qurilmasi orqali radioekologiya, geologiya, geofizika, tog‘-kon sanoati, uran va qimmatbaho metallar qazib olish, qurilish materiallari ishlab chiqarish, tibbiyot (radiologiya va nur diagnostikasi), atom energetikasi obyektlarining radiatsion xavfsizligi, sanitariya-epidemiologiya nazorati, favqulodda vaziyatlar xizmatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda radiatsion monitoring sohalarida qo‘llaniladigan gamma-nurlanish o‘lchash vositalarining metrologik kuzatuvchanligi va ishonchliligi ta‘minlanadi. Mazkur ishlar amalga oshirilishi natijasida respublikada past fonli gamma-nurlanishni o‘lchash sohasida xalqaro talablarga, jumladan IAEAning texnik hujjatlari va tavsiyalariga muvofiq keluvchi milliy metrologik infratuzilma shakllantiriladi hamda ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyat samaradorligi oshiriladi. BIPMning <i>Calibration and Measurement Capabilities (CMCs)</i> bazasiga muvofiq, milliy o‘lchash va kalibrlash imkoniyatlarining xalqaro darajada e‘tirof etilishini ta‘minlash maqsadida xalqaro metrologik solishtiruvlarda ishtirok etish hamda ularning natijalarini tan olishga doir CIPM MRA talablari asosida ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan milliy standartlar, metodikalar va past fon gamma kalibrlash qurilmasi asosida gamma o‘lchash vositalari respublikada akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda hamda xorijiy milliy metrologiya institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va qiyoslash ishlari amalga oshiriladi.. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.